O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

H.A.Saipova
Kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar 5
A.T.Nazarov
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga oid bilimlarida irodaviy sifatlar 9
E.T.Umarov
Falsafa ta'limi asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari 12
M.A.G'ofurova
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi 16
M.M.Mo'minova, V.T.Jo'rayev, M.M.Turdimatov
Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari 21
L.S.Isroilova
Talabalarni dasturlashga oid mustaqil ta'limini tashkil etishda virtual muhitlarning amaliy samaradorligi 27
G.T.Hojikarimova
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish 31
A.A.Абдуманонов
Проблемы и решения оценки практических навыков студентов медицинских учебных заведений 36
Н.Н.Бобожонов, П.Д.Мамутов
Влияние различных методов силовой тренировки на показатели прыгучести и скорости в волейболе у студентов вузов 40
M.A.Esonmirzayeva
Bo'lajak pedagoglarda texnologik metakompetentlikni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar 43
M.A.Esonmirzayeva
Metakompetensiyalarni samarali boshqarishga yordam beruvchi ko'nikmalar 47
E.E.Tadjibayev
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zaruriyati 51
S.A.Maxmudova
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish 55
M.E.Madaminova
Talabalarning texnik ijodkorligini rivojlantiish mazmuni va metodik asoslari 59
M.B.Kamoldinov
Bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi 63
Z.A.Davlataliyeva
Talabalarning o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga doir faoliyatini tashkil etish usullari 67
F.A.Hamdamova
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash modeli 71
B.A.G'ofurova
Oliy ta'lim jarayonida talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasini amaliyotga joriy etish 75
N.O.Xaydarova
Tibbiyot oliy ta'lim talabalarining refleksiv madaniyatini rivojlantirish omillari 78
U.I.Obidjanov
Zoologiya darslarida zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanish: samaradorlik va

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University
Volume 31 Issue 5, 2025-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss5/a10

UO'K: 37.02:004:37.091.3

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA TEXNOLOGIK METAKOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHGA OID ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ МЕТАКОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

SCIENTIFIC AND THEORETICAL VIEWS ON THE FORMATION OF TECHNOLOGICAL META-COMPETENCE AMONG FUTURE TEACHERS

Esonmirzayeva Madinabonu Abduboqiyevna
Farg'ona davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada, ta'lim sohasini isloh qilish, pedagog kadrlarni zamon talablariga xamnafas tarzda faoliyat yuritishlari uchun, bo'lajak pedagoglarning metakompetentligini rivolantirish orqali ustuvor yo'nalishlarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lim tizimi global axborot makoni bilan chambarchas bog'lab, bo'lajak pedagoglar ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyor bo'lishlari hamda texnologik metakompetentlikni shakllantirish masalasi pedagogika fanida dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri ekanligi yoritilgan.

Аннотация

В данной статье особое внимание уделяется совершенствованию приоритетных направлений в сфере образования путем развития метакомпетентности будущих педагогов, чтобы педагогические кадры могли осуществлять свою деятельность в соответствии с требованиями времени. Освещается, что система образования тесно связана с глобальным информатsionным пространством, и будущие педагоги должны быть готовы эффективно использовать современные информатsionно-коммуникатsionные технологии в организатsii образовательного процесса. Подчеркивается, что вопрос формирования технологической метакомпетентности является одним из актуальных научных направлений в педагогической науке.

Abstract

In this article, special attention is paid to reforming the education sector, improving priority areas by developing the metacompetence of future teachers so that teaching staff can work in accordance with modern requirements. It is highlighted that the education system is closely connected with the global information space, that future teachers are ready to effectively use modern information and communication technologies in the organization of the educational process, and that the issue of the formation of technological metacompetence is one of the relevant scientific directions in pedagogical science.

Kalit so'zlar: *texnologik metakompetentlik, bo'lajak pedagoglar, ta'lim jarayoni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim islohotlari, pedagogik fan.*

Ключевые слова: *технологическая метакомпетентность, будущие педагоги, образовательный процесс, информатsionно-коммуникатsionные технологии, реформы образования, педагогическая наука.*

Key words: *technological metacompetence, future educators, educational process, information and communication technologies (ict), educational reforms, pedagogical science, professional development, digital literacy.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagog shaxsining texnologik savodxonligi va raqamli kompetensiyasi alohida ilmiy tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda. **Texnologik metakompetentlik** - bu nafaqat texnik vositalarni bilish va ulardan foydalanish qobiliyati, balki ta'lim jarayonini loyihalash, boshqarish va samaradorligini oshirish uchun texnologik yondashuvlarni tanlash imkoniyati "ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi [1,35.]. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta'lim sohasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish pedagogning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lib, bo'lajak pedagoglarda texnologik metakompetentlikni shakllantirish dolzarb ilmiy muammosiga aylangan. XXI asrda ta'lim tizimida global axborot makoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bo'lajak pedagoglardan nafaqat

kasbiy-pedagogik, balki texnologik kompetensiyalarni talab etadi. Bo'lajak pedagoglarni ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyor bo'lishlari lozim bo'ladi. Texnologik metakompetentlikni shakllantirish masalasi pedagogika fanida dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanib, ko'nikmalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi [2,49.].

Texnologik metakompetentlik tushunchasiga nazariy yondashuvlar Ilmiy adabiyotlarda texnologik metakompetentlik ko'p qirrali tushuncha sifatida talqin etiladi. Misol uchun **L. Shulman (1986)** – o'qituvchi kompetensiyasini pedagogik, texnologik va predmet bilimlari uyg'unligi asosida ko'rgan. **M. Koehler va P. Mishra (2006) yilda – TPACK modeli**ni ishlab chiqib, texnologik bilimlarni pedagogik va predmet bilimlari bilan integratsiyalashgan holda taqdim etgan.

DigCompEdu (2017) – Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan model bo'lib, pedagoglarning raqamli resurslardan foydalanishi, ta'lim jarayonini raqamlashtirishi va o'quvchilarda raqamli savodxonlikni rivojlantirishini asosiy mezon sifatida belgilaydi.

Mazkur qarashlardan kelib chiqib, texnologik metakompetentlik nafaqat texnologiyalarni bilish, balki ularni ta'lim jarayonida ijodiy va samarali qo'llash qobiliyat ekanligi ifodalangan.

Xorijda (AQSh, Finlyandiya, Janubiy Koreya) pedagog kadrlarni tayyorlashda texnologik kompetensiya markaziy o'rinni egallaydi[3,124.]. O'zbekistonda esa "Raqamli ta'lim", "Elektron ta'lim resurslari" konsepsiyalari va "Uchinchi Renessans" g'oyalari asosida bo'lajak pedagoglarning texnologik salohiyatini rivojlantirish davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI

Masalan AQShda pedagoglarni tayyorlash jarayonida **TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge)** modeli asosida texnologik kompetensiya shakllantiriladi. Bu model bo'lajak pedagoglardan nafaqat texnologiyani bilishni, balki uni fan mazmuni va pedagogik metodlar bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi. Shuningdek, AQSh universitetlarida "EdTech labs" (ta'lim texnologiyalari laboratoriyalari) faoliyati orqali amaliy mashg'ulotlarga katta e'tibor beriladi[4,97.].

"Xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish"da[5,44.]. **Finlyandiya** ta'lim tizimi texnologik savodxonlik va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish maktabgacha bosqichdan boshlab yo'lga qo'yilgan. Pedagoglarni tayyorlashda "future classroom" (kelajak sinf xonalari) konsepsiyasi asosida interaktiv muhit yaratiladi. Pedagog kadrlar tayyorlovchi universitetlarda texnologik kompetensiya **umumiy pedagogik kompetensiyaning ajralmas qismi** sifatida baholanadi.

Janubiy Koreyada pedagogik ta'limda "Smart Education" dasturi asosida barcha bo'lajak o'qituvchilar uchun majburiy **ICT (Information and Communication Technology) kurslari** joriy etilgan. Bundan tashqari, raqamli darsliklar, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalari bilan ishlash malakasi shakllantiriladi. Pedagoglar o'quv jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha davlat tomonidan muntazam qayta tayyorlov kurslarida qatnashadilar. [6,44-45.].

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, texnologik metakompetentlik faqat texnik bilim emas, balki pedagogik va metodik integratsiyani ham talab qiladi amaliyotga yo'naltirilgan laboratoriyalar, interaktiv muhit muhim o'rin tutadi hamda o'z navbatida pedagoglar uchun uzluksiz qayta tayyorlov, malaka oshirish zarur bo'ladi.

Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasini isloh qilishdagi sa'y harakatlardan asosiy maqsad - bu pedagog kadrlarni zamon talablariga xamnafas tarzda faoliyat yuritishlari uchun, bo'lajak pedagoglarning metakompetentligini rivolantirish konsepsiyasi orqali ustuvor yo'nalishlarini takomillashtirishga e'tibor qaratilgan. O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faolligini oshirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Pedagogik faoliyat yuksak intellekt, keng dunyoqarash va teran tafakkur, huquqiy ong va siyosiy madaniyat asosida shaklananadi.

MUHOKAMA

2022-2026-yillarga mo'ljallangan davlat dasturida O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida "Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimidagi yutuqlarda kelib chiqqan holda yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish" vazifasi belgilab o'tilgan.

Buning negizida pedagogik faoliyatni rivojlantirishda bo'lajak pedagoglarni kreativligini, ilmiy pedagogik izlanishlar olib borishini talab etadi. Bugungi kun jamiyati, yoshlarni har tomonlama rivojlangan, chuqur bilim, malaka va ko'nikma hamda madaniyatga ega bo'lishlarini talab etmoqda.

Bo'lajak pedagogning metakompetentligini rivojlantirishda metakompetentlik muhum ahamiyatga bog'liq bo'ladi. **Metakompetentlik –** bu shaxsning murakkab, o'zgaruvchan va noaniq vaziyatlarda mustaqil fikrlash, reflektiv yondashuv, muammolarni hal qilish, o'zini o'zi boshqarish, moslashish va doimiy o'rganishga tayyorlik kabi yuqori darajadagi kompetensiyalarni mujassam etuvchi tushunchadir.

Metakompetentlik – bu kompetensiyalarning kompetensiyasi deb ham ataladi. Ya'ni, u faqatgina biror sohadagi bilim yoki ko'nikmaga ega bo'lish emas, balki o'rganilgan bilim va ko'nikmalarni muayyan kontekstda moslashtira olish, yangilay olish, tahlil qila olish va boshqarish qobiliyatidir.

Metakompetentlikning mohiyati – bu shaxsning o'z bilim, ko'nikma va faoliyatini chuqur anglash, nazorat qilish, tahlil qilish va yangi sharoitlarga moslashtira olish qobiliyatidir. Bu tushuncha oddiy bilim yoki ko'nikmadan farqli ravishda o'rganishni o'rganish, fikrlashni boshqarish, refleksiya qilish va kompleks vaziyatlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish kabi yuqori darajadagi qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika faniga "kreativlik" degan tushunchani olib kiradi.

Tafakkur jarayonida inson amaliy faoliyat, obrazlar va tasavvurlar, modellar, chizmalar, belgilar, til kabi jismli va ijtimoiy olamning ahamiyatli aloqa va munosabatlariga kirib borish maqsadida, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan turli xildagi vositalardan foydalanadi. Tafakkurning o'ziga xos xususiyati bilish yoki amaliy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan u yoki bu vazifani bajarish bilan bog'liqligidan iborat. Tafakkur muammoli vaziyatdan, tafakkurning maqsadi bo'lgan savolga javobdan boshlanadi[7,68.].

Tafakkur, bu tushuncha insonning yangi ma'lumotni qabul qilish va ularga javob berish tezligini ifodalaydi. Tezkor tafakkur odamning qisqa vaqt ichida yangi fikrlarni qabul qilish, ularga asoslangan xulosalar chiqarish va o'zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashish qobiliyatini anglatadi. Tezkor tafakkur yuqori darajadagi diqqat va tez o'ylashni talab qiladi. Tezkor tafakkur odamning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, bu esa murakkab masalalarni tezda hal qilishda, yangi imkoniyatlarni aniqlashda hamda o'zgartirishlarga tezda javob berishda yordam beradi. Tafakkur insonning fikrlarini, qarashlarini va yondashuvlarini o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatini anglatadi.

Yana bir ustuvor yo'nalishlardan biri bu - yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati. Bu qobiliyat insonning yangi, ilg'or va original fikrlar yoki yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatini talab qiladi. Bu qobiliyat kreativlik, ijodkorlik yoki innovatsion fikrlash bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Yangi g'oya yaratish, odatda, mavjud bilimlarni yangi tarzda birlashtirish, mavjud konseptlarni qayta ko'rib chiqish va ular asosida yangi yondashuvlarni ishlab chiqish jarayonini o'z ichiga oladi. Bu jarayon nafaqat san'atda, balki ilm-fan, texnologiya, biznes va kundalik hayotda ham muhim rol o'ynaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak pedagoglarning metakompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi ta'lim tizimining zamonaviy talablariga javob beruvchi, pedagoglarning o'z faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan strategik yondashuvni shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida konsepsiya bo'yicha pedagoglarning o'zining o'rganish jarayonini boshqarish, yangi bilimlarni qabul qilish, yangi pedagogik usullarni sinab ko'rish va o'quvchilarga innovatsion yondashuvlarni taqdim etish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, metakompetentlikni rivojlantirish jarayonida ta'lim tizimining o'zgarishi va yangilanishi muhim rol o'ynaydi. Pedagoglarga zamonaviy o'qitish metodlarini o'rgatish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, innovatsion usullarni o'rganish va o'z faoliyatida sinovdan o'tkazish muhim va zaruratga aylanadi. Pedagogik tajriba va hamkorlik jarayoni orqali pedagoglarning o'zaro tajriba almashishi, metodik yondashuvlar bo'yicha hamkorlik qilishlari, tajriba va bilimlarni bir-birlariga uzatishlari muhim hisoblanadi. Bu jarayon orqali bo'lajak pedagoglar o'zlarini yanada kuchliroq his qilishadi va o'z faoliyatida innovatsion yechimlarni qo'llashni o'rganadilar va kelajak avlodga o'rgatadilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. X.Meliyev, O.Jamoldinova. K.Risqulova. Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati. O‘quv qo‘llanma.-Toshkent;. Zarvaraq nashriyoti.2021.

2. Garden H. “A Blessing of Influences” in Howard Garden Under Fire(англ.) / Schaler, Jeffrey A.-Illinois:Open Court, 2006.-ISBN 978-0-8126-9604-2.

3. 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5847-сон Фармони // https://lex.uz/docs/4545884 .

4. F.I.Abduvaliyeva. Ta’lim jarayonida talabalar tafakkuri rivojlanishinig o‘ziga xos xususiyatlari./ Science, education, innovation: modern tasks and prospects. Наука, образование, инноватсии: современные задачи и перспективы. Ilm-fan, ta’lim-tarbiya, innovatsiya: zamonaviy vazifalari va istiqbollari. International Scientific and Practical Conference.-Toshkent;. May 3, 2024.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги “2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2707- сон қарори.

6.Live Online Tutoring That Feels Like In-Person Tutoring Call (917) 722-0677.

7.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston”. 2022y.

8.Mavlonova R. va b.q. Pedagogika. Darslik. -Toshkent.: O‘qituvchi, 2001y.

9.Uzluksiz ma’naviy tarbiya Kontseptsiyasi”. - Toshkent.: 2019y.